

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING AFG`ONISTONDA O`RGANILISHI

**To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna**

Surxondaryo viloyatidagi Afg`oniston  
fuqarolarini o`qitish ta`lim markazida  
katta o`qituvchi

**Muhiba Korgar**

Surxondaryo viloyatidagi Afg`oniston  
fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi  
talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Afg`onistonlik yozuvchilar tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yozilgn asarlar haqida so`z boradi.

**Kalit so`z:** muallif, fonetik, risola, shoir , g'azal.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483\_1530) buyuk davlat arbobi ,atoqli ijodkor, tarixchi va o`zbek adabiyoti tarixidan xabardor shaxsiyat.Demak Bobur haqida so`z yuritishda uning ikki xil simosini nazarda tutish kerak:Birinchi; Bobur davlat arbobi va buyuk shoh sifatida .Ikkinchi; Bobur bir ijodkor,shoir va tarixchi sifatida. Bobur jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shgan siyosatmador va ijodkordir. Bobur Amir Temur Ko'rragon oilasiga mansub buyuk emperiya va so`z mulkining sultonı. U o`zining (49) yillik unimli umrida sharq xalqlari madani hayotida, mangu va ulmas asarlar miros qoldirdi.Albatta biz Zahiriddin Muhammad Bobur tug`ilishining (626) yilligi munosabati uchun madaniy ishlar bilan shug`illanib kelayotganlarga imkonи boricha Bobur davri va uning tarixi\_madaniy ahamiyatini o`rganish uchun Afg`oniston,Uzbekiston,Hinduston davlatlar orasida bir qushma madaniy tadqiqoti va qidiruv markaz ochilishini albatta foydali deb bilamiz.Demak Boburshunoslik tarixi ulkamizda yarim asrdan uzoq umirga ega.Ushbu maqola orqali Bobur asarlari va uning haqida chop bo`lgan ketoblarni birma-bir sanab va ularning qisqacha tanishtirib utmoqchimiz. Albatta ushbu chop bo`lgan mustaqil asarlardan tashqari milodiy 1978 yildan Bobur tavalludi munosabatlari uchun ham bir xil maqola va yozuvlar Afg`oniston rasmiy matbuotida o`zbek, dari va Pashtu tillarida chiqa boshladi.

**“Oromgoh Bobur” :**Ushbu risola rahmatli ustoz Xalilulloh Xaliliy qalamiga yozilgan asar.Bu risola Afg`onistonda Bobur haqida ilk asar bo`lib,Boburning Kobul shahrida joylashgan maqbara va bog`i haqida tuliq ma`lumot beradi.Bu risola milodiy 1999 - yil (Juandun) gazetasi sahifalari orqali

tarqalib, keyin kichik qita bilan Anis nashriyoti tomonidan(70) baytda ilk martaba chop bo`ldi.

**“Hunar davra Timuriyon” :** Ushbu tahqiqiy asar rahmatli ustozi Abdulhay Habibiy qalamiga mansub bo`lib o`n to`rtinchi hijriy asrning to`rtinchi o`nligida Iron davlatida bosilib chiqqan ushbu asarda Timuriy silolalar hamda usha davrning adabiyot sn`at va turli ilm va hunarlari haqida ma`lumot qayd etilgan albatta bu asar qo`lmizda bo`lmasligi bois uning to`liq shaklda tanishtirish mumkin bo`lmaydi.

**“Zahiriddin Muhammad Bobur Shoh” :** Bu asar Afg`onistonda,Bobur haqida birinchi asarlardan hisoblanib, ustozi Abdulhay Habibiy vositasida 1974 milodiy yiliда ma`lumot va madaniyat vazirligi tomonidan birming dona, Kobul davlati bosma xonasida chop etilgan.Bu asarda ustozi Habibiy turli tarixi manbalarda murojat qilish bilan Bobur hayoti ,siyosi,faoliyati,ijodi ishlari va uning yashagan davri haqida qiymatli ma`lumot bergen.Ma`lumot bo`lishicha bu kitob so`ngi yillarda Sabo kitobxonasi tomonidan qaytadan chop bo`lgan.

**“Boburga armag`on” :** Bu asar milodiy 1984 yilda Afg`oniston fanlar akademiyasi tomonidan usha vaqtidagi ta`lim va tarbiya vazoratining bosmaxonasida yetti yuz dona va (70) baytda chop bo`lgan.Risola tuplovchisi hurmatli Shafiqqa Yorqindir.Boburga armag`on aslida milodiy 1983-1984 yillar orasida Yulduz jurnal tashabbusi bilan Zahiriddin Muhammad Boburning (500)yilligiga bag`ishlanib yo`lga tashlangan bir anjumandan iborat edi. Ushbu anjumanda o`zbek shoirlaridan ortiq,dari va Pashtu tillaridagi shoirlar ham qatnashgan edi.

**“Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur” :** Bu asar milodiy 1984 yili Afg`oniston fanlar akademiyasidagi til va adabiyot markazi tomonidan bir ming dona qadrlı donishmand Shafiqqa Yorqin muqaddima, muqobala tahsisi bilan Kobul davlat bosma xonasida Bobur tug`ilganini (500)yilligi munosabatga bag`ishlanib chop etilgan. Asar zotan dari tilida yozilib to`rt qsimdan iborat: Birinchi qismi; Bobur hayoti va ijodi. Ikkinci qismi; Bobur asarlari. Uchinchi qismi; Bobur she'riyati bilan tanishtirish. To`rtinchi qismi; Bobur devonining chop etilgan va qo`l yozma nusxalari.

**“Bobur manguligi”:** Bu asar milodiy 1994 yilda Javzjon viloyati ma`lumot va madaniyat vazirligi tomonidan (500) donaga qadrlı donishmand Halim Yorqin tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur tug`ilganini(510) yilligi munosabati bilan chop etilgan. Ushbu risola o`zbek tilida yozilib Boburning hayoti , adabiy-siyosiy faoliyatları haqida ma`lumot beruvchi sasar bo`lib asar tarkibida Hindustonda saltanat qilgan Bobur va uning avlodarining saltanat yillari ko`rsatadi.

**“Divan Zahiriddin Muhammad Bobur”:**Bu asar ham Shafiqa Yorqin qalamiga mansub bo`lib Toshketdagi sharq nashriyoti bosma xonasida, Bobur nomidagi xalqaro buniyodi jamg’armasi bilan milodiy 2004 yilda (108)baytdan iborat bo`lib O’zbekistonda chop etilgan. Kitob matnnining yarimi arab yozuvida qolgan yarimi lotin yozuvida berilgan. Kitob tarkibida O’zbekistonda adabiy tahqiq va qidiruvlar natijasida topilgan Bobur she`rlari sig`dirilgan.

**“Shohanshoh suxanvar” :**Bu asar hurmatli Abdulloh Korgar qalamiga yozilgan bo`lib milodiy 2005- yil oxirida, ikki martaba usha yilning yoz va kuz fasllarida Alozhar nashriyoti tomonidan Pokistonning Pishour sharida chop etilib (138)baytdan iborat. Asarning (94) baytida,forsi-dari tillida matn va (42)baytda uning englizcha tarjimasi joylashtirilgan. Asar tarkibida muallif Boburning Afg`oniston va Hindustondagi siyosiy faoliyatilari,siyosiy-idoriy va harbi shaxsiyati va uning oylasi haqida ma`lumot qayd etib,Bobur hayotida yuz bergen siyosiy-tarixiy voqealarni zikr etib o’tadi.

**“Timuriyon(ahd Timuriyon va Boburiyon Hind)” :** Ushbu kitob hurmatli yozuvchi Abdulloh Korgar tomonidan yozilib milodiy 2009 yillida Pokistonning Pishovur shahrida Alozhar nashriyoti tomonidan (1000)dona rangli muqovasi bilan (600)baytda chop etilgan.

**“Bobur xati”:**Bu risola yozuvchi Muhammad Halim Yorqin qalamiga yozilib milodiy 2006 yilda Afg`oniston madaniy anjumanı orqali (500)dona va (50) baytda bosilib chiqqan. Asarning asosiy qismi Boburning xati paydo bo`lishi tarixi, harflar tarkibi va fonetik xususiyati, shuningdek boshqa alfabitlar bilan uning munosabati va qo`llanish tarixiga bag`ishlanilgan.

### **FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:**

[https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2008/02/080224\\_babur](https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2008/02/080224_babur)

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Boburnoma>